

NO'XAT HOSILDORLIGIGA EKISH MUDDATLARI VA SXEMALARIGA BOG'LIQLIGI

Narbayeva Maftuna Abdurahmon qizi

Bugungi kunda no'xat ekini maydoni dunyo bo'yicha 14573 ming gektar bo'lib, 2007 yilga nisbatan 3,3% kengaygan. No'xat yetishtiruvchi asosiy davlatlar – Hindiston, Avstraliya, Pokiston, Argentina, Afrika davlatlari va Meksika hisoblanadi, no'xat ishlab chiqarish bo'yicha Hindiston (10984 ming/ t) yetakchilik qilib, uning ulushi 73 foizga to'g'ri keladi. Ikkinchi o'rinni Avstraliya (661 ming/t) va uchinchi o'rinni Pokiston (601 ming/t) egallaydi. Hozirgi vaqtda no'xat hosildorligi 10 s/ga ni tashkil etib, 2007 yilga nisbatan 2,2 foizga oshgan [4].

Dunyo dehqonchiligida no'xat 10,2 mln ga ekilgan, shundan 8 mln. gektari Hindistonda. Ekilish maydoni bo'yicha dukkakli don ekinlari orasida uchinchi o'rinni egallaydi. O'zbekistonda no'xat lalmikor va suvli yerlarda 4-5 ming ga maydonga ekiladi.

No'xat (*Cicer aretinum L.*) o'simligining vatani Tojikiston va O'zbekistonning tog'li xududlari deb taxmin qilinadi. No'xat dunyoning juda ko'p mamlakatlarida ekiladi va muhim agrotexnik, ekologik hamda xo'jalik ahamiyatga ega bo'lgan ekin hisoblanadi. U qadimdan dunyoda keng tarqalgan dukkakli don ekini bo'lib, turli qit'alarda undan oziq-ovqat va yem-xashak hamda qayta ishlash sanoati uchun xom ashyo sifatida foydalaniladi. Respublikamizda no'xat ekinining turli xil iqlim sharoitlarida o'sayotgan ekotiplarining biologik xususiyatlari, jumladan o'sish dinamikasi, hosil elementlarning shakllanishi, 1000 dona urug' vazni kabi ko'rsatgichlari deyarli o'rganilmagan. Dukkakli - don ekinlari orasida yuqori miqdorda oqsil va sifatli moy beruvchi no'xat o'simligi alohida xususiyatga ega. Hozirgi kunda, yer sharidagi rivojlangan mamlakatlarda chorva mollari oziqasida dukkakli ekinlardan - no'xat (*Cicer arietinum L.*) muhim o'rinni egallaydi [3,5].

No'xat dukkakli don ekinlari guruhi ichida oziq-ovqat uchun eng ko'p ishlatiladigan ekin hisoblanadi. U inson organizmi uchun muhim bo'lgan oqsil, moy va uglevodlarga boy

oziqa mahsulotlari tarkibiga egadir. No'xat ekini oziqaviylik tarkibi bo'yicha soya, yasmiq, gorox va boshqa dukkakli don ekinlariga nisbatan ustun turadi [6.].

No'xat doni tarkibidagi oqsilning miqdori 20,1foizdan 32,4foizgacha boradi. Soya va goroxda oqsil ko'p bo'lsa ham, biroq no'xat doni tarkibidagi oqsil sifati jihatidan, ya'ni metionin, triptofan va shu singari almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar ko'pligi bo'yicha boshqa dukkakli ekinlardan ustun turadi [2].

Ma'lumki, no'xat navlaridan yuqori hosil va sifatli urug'lik yetishtirishda asosiy agrotexnologik tadbirlardan biri urug'larni o'z vaqtida va me'yorida ekish orqali sog'lom maysalarni undirib olish hisoblanadi. Chunki, kuzda ekilgan no'xatning o'sishi, rivojlanishi, qishga chidamliligi va boshqa hosilga ta'sir qiluvchi omillar orasida kuzgi ekish muddati muhim ahamiyatga ega [1.].

Tajribalarimiz 2022-2023- yillar davomida Pastdarg'om tumani Kichik Chimboy MMTP Yangi qishloq g'allazori nomli fermer xo'jaligining lalmikor tipik bo'z tuproqlari sharoitida o'tkazildi. Tajribada no'xatning Xalima, Malxatro navlari 20 fevral, 12 mart, 01 aprel muddatlarida 60x6sm; 60x9sm; 60x12sm; 60x15sm va 60x18sm ekildi.

Tajribada no'xatning Xalima, Malxatro navlaridan foydalanildi. Tajribalar maydoni 1500 m², hisoblash maydoni 648 m², 1 ta paykalcha maydoni 36 m² bo'lib, uch qaytariqda olib borildi. Tajribada no'xatni ekish sxemasi - qator oralig'i 60 sm, qatordagi o'simlik oralig'i esa 6; 9; 12; 15 va 18 sm va urug' tuproqning 3-4 sm chuqurligida ekildi. Dala tajribalarini o'tkazish, ekish, ekinni parvarishlash, hosilni yig'ish va hisoblash, kuzatish va tahlillar O'zbekiston donchilik ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi tavsiyalari asosida olib borildi. Tajriba maydoni tuprog'ining agrokimyoviy tarkibi no'xatni ekishdan oldin va ekin yig'ishtirib olingandan so'ng umum qabul qilingan uslublarda olib borildi.

Tajriba natijalariga ko'ra no'xatning Xalima va Malxatro navlarini 20 fevral ekish muddatida turli ekish sxemalarida ekilganda yuqori hosil 60x15sm sxemada ekilganda navlarida muvofiq holda hosildorlik gektariga 9,4; 10,9 s, 12 mart ekish muddatida esa gektariga 8,1; 9,4s.ni va 1 aprelda ekilganda 6,0; 6,1 s.ni tashkil qildi. Erta 20 fevral muddatda ekilganda no'xat donini hosili kechki muddatlarga (1 aprel)

1-jadval

Ekish muddatlari va sxemalarining no'xat navlarini hosildorligiga ta'siri, s/ga

2021-2022 yy

Ekish muddati	Ekish cxemasi	Xalima navi	Malxotra navi
20.02	60x6sm	8,1	9,2
	60x9sm	8,5	9,6
	60x12sm	9,0	10,1
	60x15sm	9,4	10,9
	60x18sm	8,9	10,4
12.03	60x6sm	6,7	8,0
	60x9sm	7,1	8,4
	60x12sm	7,6	8,9
	60x15sm	8,1	9,4
	60x18sm	7,5	8,8
1.04	60x6sm	5,1	5,2
	60x9sm	5,3	5,4
	60x12sm	5,7	5,8
	60x15sm	6,0	6,1
	60x18sm	5,5	5,6
$S_{\bar{x}}(\%)=$	1,30		
$EKF_{05}(s/ga)=$	2,06		

qaraganda gektaridan 3,0-4,8 s ko'p bo'lishi qayd etildi.

2022 yilda yanvar - iyun oylarida yog‘ingarchiliklar ko‘p yillik me‘yorga nisbatan 59,2 mm ko‘p bo‘lishi kuzatildi. 2023 yilda esa ko‘p yillik ko‘rsatkichlarga nisbatan yog‘ingarchiliklar miqdori 34,3 mm ko‘p bo‘ldi va bu esa, no‘xat don hosiliga ijobiy ta‘sir etdi.

Tajribalarimizda lalmikorlikning qir-adirlik mintaqasida no‘xatning Xalima va Malxotra navlarini ekishni 20 fevralda ekish sxemasini 60x6sm dan 60x15sm gacha oshirganda hosildorlik navlarga muvofiq 9,4; 10,9 sentnerni tashkil qildi yoki don hosili navlarga muvofiq holda gektariga 1,3 va 1,7 sentner ko‘paydi. Ekish sxemasini ikkala navda ham yana 60x18sm gacha oshirilganda don hosili oshishida ishonarli farq kuzatilmadi. Ekishni kechikishi bilan don hosili ham kamayib bordi. Fikrimizcha ekish sxemasini zichlashtirilganda ya‘ni tup sonini oshirilganda tuproqdagi namlik va oziq moddalar yetishmasligi, ekish sxemasini siyraklashtirilganda tup sonini kamaytirganda esa, don va hosil elementlari kamayib ketadi.

Xulosa qilib aytganda, lalmikorlikning qir-adirlik mintaqasida no‘xatning Xalima va Malxotra navlarini ekishni maqbul ekish muddati 20 fevralda ekish sxemasida 60x15sm gektariga navlarga muvofiq holda 36; 39 kilogramm urug‘ ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atabaeva X.N., O‘simlikshunoslik. T.: “Mehnat”. 2000.
2. Bobokulov Z.R, Bobomurodov Z.S. Productivity Of Chikpea Varieties And The Effect Of Different Planting Times And Depths On Grain Quality Indicators. NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO, 7524-7532
3. Bobokulov Z. R. NO‘XAT - DAROMAD MANBAI. CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH. VOLUME 2. ISSUE 3. – 2022. – B. 30-35.
4. Bobomurodov Z.S, Bobokulov Z.R. NO‘XAT EKININING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (Fermirlarga kichik maslaxat). DEVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR, 989-992.

5. Kokoszko M., Jagusiak K., Dybała J. The chickpea (*Cicer arietinum* L.) as a medicinal foodstuff and medicine in selected Greek medical writings. *Studia Ceranea*, 7 (2017), pp. 99-120.
6. Otaqulova D.A., Amanov O.A., Jabborov F.B. Och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida no‘xat o‘simligining ekish sxemasi va o‘g‘itlash me‘yorlarining o‘suv davri hamda o‘simlikbo‘yiga ta’siri. *AGRO ILM*. Toshkent. 2021 y. – № 3. – 21-23